

O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM MOLIYA TIZIMINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

Salimova Rushana Ravshan qizi

SAMISI Bank-Moliya xizmatlari fakulteti

Ilmiy rahbar: Meliyev Azimjon Murodullo o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda Islom moliya tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, an’anaviy bank tizimidan farqlari hamda O‘zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq etish imkoniyatlari yoritilib beriladi. IMRAD standarti asosida olib borilgan tahlillar natijasida sohani rivojlantirishdagi mavjud to‘siqlar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Islomiy moliya, Murobaha, Ribo, Sukuk, shariat standartlari, moliya bozori, investitsiya.

Kirish

Bugungi kunda Jahon moliya bozorida islomiy moliya aktivlari jadal sur‘atlar bilan o‘rib bormoqda. Islom moliya tizimi nafaqat diniy e‘tiqodlarga asoslangan, balki adolatli taqsimot va real aktivlarga tayangan iqtisodiy model sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston aholisining katta qismi musulmon ekanligini inobatga olsak, islomiy bank xizmatlariga bo‘lgan talab yuqori, biroq taklif hali ham shakllanish bosqichida. Tadqiqotning maqsadi shunday-ki, O‘zbekistonda Islom moliya darchalarini ochish va yangi instrumentlarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishdir.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlillar, induksiya va deduksiya hamda statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, Islom taraqqiyot banki (ITB) va O‘zbekiston Markaziy bankining ochiq ma‘lumotlari tahlil qilindi. Islom moliya tizimining asosiy prinsiplari (foizning taqiqlanishi, noaniqlikning yo‘qligi) an’anaviy bank tizimi bilan solishtirildi.

Natijalar: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda islom moliya tizimini joriy etish quyidagi ijobiy natijalarni berishi mumkin:

- Investitsiya jalb qilish: Yaqin Sharq davlatlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimining ko‘payishi;
- Moliyaviy inkluzivlik: Diniy qarashlari tufayli bank xizmatidan foydalanmayotgan aholi mablag‘larini iqtisodiyotga jalb qilish.

Ayniqsa, Murobaha (ya‘ni ustama haq evaziga sotish) shartnomasi eng istiqbolli instrument hisoblanadi. Bunda bank aktivni sotib oladi hamda o‘z foydasini qo‘ygan holda mijozga bo‘lib to‘lashga beradi. Bu kreditdan farqli o‘laroq, pulni sotish emas, balki real savdo amaliyotidir.

Muhokama: Tizimni joriy etishda huquqiy va soliqqa oid muammolar mavjud. Xususan, Murobaha bitimida aktivni ikki marta rasmiylashtirish jarayonida ikki karra soliqqa tortish xavfi yuzaga keladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda islomiy moliya tushunchalarining yo‘qligi banklarga ushbu xizmatlarni litsenziyalashda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Shuningdek, soha uchun shariat va moliya qonun-qoidalarini birdek biladigan kadrlar yetishmovchiligi sezilmoqda.

Xulosa: Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Qonunchilik: "Islomiy moliya muassasalari to‘g‘risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarur.
- Soliq: Soliq kodeksida islomiy moliya instrumentlari uchun maxsus tartiblar (masalan, QQSdan ozod qilish yoki bir martalik soliq) belgilanishi lozim.
- Ta'lim: OTMlarda islom iqtisodiyoti bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni jadallashtirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov B.S. Islom moliya tizimi: darslik. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019. — 128-b.
2. Bekkin R.I. Islamic Finance in the Modern World. — London: Routledge, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni.
4. Ayub M. Understanding Islamic Finance. — John Wiley & Sons, 2007. — P. 210.
5. Iskandarov B. Islom moliya instrumentlari va ularning iqtisodiy samaradorligi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali. № 3, 2022.
6. AAOIFI. Shari'ah Standards. — Manama, Bahrain, 2023.